

TURIZIM SOHASINING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

Bakirova Oynura

QarDU talabasi

Annotsiya

Ushbu maqolada turizm sohasi iqtisodiyotning rivojlanishiga katta xizmat qilishi va turizm sohasini rivojlantirish kerakligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sayyoh, mehmonxona, motel, muzey, kemping, turistik ob'ektlar, havo yo'llari, temir yo'l, avtomobil transportlari, ovqatlanish va savdo shahobchalari, turoperator.

Introduction

O'zbekiston Respublikasi prezidentining O'RQ-549-sonli qarorida "Turizm to'g'risida" qonun ishlab chiqilgan. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan va senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalari, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bemalol turizmni rivojlantirish mumkin. Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'zib ketdi. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini (научоёмкий) va quvvatni ko'p sarf qiladigan (энергоёмкий) texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalari bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermoqdalar. Ular yangidan yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini qayta ta'mirlanmoqda, asosiy maqsad esa ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirish. Bunga birgina Samarqand shahrida qurilgan o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasiz o'z tashabbuslari bilan qurilgan ob'ektlardir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z navbatida, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, ish o'rnini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlarining saqlashining bosh omilidir.

Dunyo bo'yicha 2014-yilda sayohat va turizm 7,6 trillion AQSH dollari, ya'ni umumiy YaIMning 10 %i va 277 million ish o'rni (har 11dan 1 kishi turizm sohasida ishlaydi) ga teng bo'ldi. Yaqin yillarda turizm dunyo miqyosida avtomobil sanoati, moliyaviy xizmatlar va sog'liqni saqlashga qaraganda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'tgan yil ham bundan mustasno bo'lmadi. Xalqaro turistlar tashrifi 1,14 mlrdga teng bo'ldi va bu ko'rsatkichning 46 %i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston ham iqtisodiy o'sishda davom etdi. Ma'lumki, O'zbekiston turizm sanoatida katta imkoniyatga ega davlatdir. Bugungi kunda mamlakatimizda 4000 dan ortiq tarixiy obidalar va muzeylarimizda 2 mlndan ziyod qadimiy eksponatlar saqlanayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Respublika bo'yicha jami 550 ta sayyohlik kompaniyasi turoperatorlari faoliyat yuritmoqda. Mintaqamizdagi tarixiy ob'ektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha sayyohlarga xizmat ko'rsatilmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy madaniy meros ob'ektlari, 30 tasi tabiiy rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizm elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir. Hozirda yurtimizda 50 mingdan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglarda sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy hayotida turizm sanoatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, yuqori valyuta tushumini taminlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanadilar, turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini taminlaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'naviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e'tibor berib, ma'lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo'lganliklari uchun foydalanadilar. Bu ham turizmning o'ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o'tishda, soliq to'lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, havo va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo'ladi. Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bo'lib, ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlarini tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo'ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an'analarni tiklash bilan birga mehmondorchilik odoblarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham muttasil o'sib boradi.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan, u turizmni rivojlantirish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi, xalqlararo aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi va boshqalar. Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Ish o'rinlarini yaralishi;
- Daromadni ko'payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi;
- Urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;
- Ijtimoiy va madaniy jarayonlarining tezlashishi;
- Mahalliy madaniyat o'choqlarining yaralishi, xalq ijodiyoti, an'analari, rusumlarini rivojlanishi;
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi;

- Mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- Tabiiy komplekslarning kengayishi;
- Mintaqa jozibadorligini oshishi;
- Mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;

O'zbekistonda turizmning rivojlanish holatlarini tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor oshganini va tashrif buyuruvchilar salmog'i ko'payganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'z o'rnini egallayotganligidan dalolatdir. O'zbekistonning 70% hududlarini cho'l va adir mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs ro'yhatga olingan. Bu resurslar 14 ta alohida – alohida mavzularda ekanligi bepayon cho'l tabiati cho'l hududlari xalqi hayoti, cho'l hududlarining o'simliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalanilsa turistlar oqimini yanada oshirish imkoniyati yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Iqtisodiyot rivojlanmay turib turizm sohasini rivojlantirib bo'lmaydi. Shunday ekan, O'zbekiston hududida ham boshqa davlatlar qatori turizm sohasini rivojlantirish imkoniyati juda keng.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Erkin, G., & Muborak, R. (2022). MODERN MARKETING CONCEPT. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(8), 60-66.
2. Suyunovich, T. I., & Erkin, G. POSSIBILITIES TO INCREASE THE MULTIPLICATIVE EFFICIENCY OF TOURISM THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES IN NEW UZBEKISTAN.
3. Исмагуллаев, Ж. А. (2022). ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ХУДУДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. Gospodarka i Innowacje., 24, 485-489.
4. SULTANOV, T. (2018). Ali Şir Nevaî Şiirinin Sadık Bey Sadıkî Sanatına Etkisi. Dil ve Edebiyat Araştırmaları, 18(18), 277-285.
5. Yorkulov, M., Marjona, T., & Zarrina, B. (2022). USAGE OF ICT FOR HOSPITALITY INDUSTRY OF UZBEKISTAN: ANALYSIS AND SUGGESTIONS. British View, 7(2).
6. Siroj, K., & Yorkulov, M. (2021). Improving innovative training and national spirituality for tourism education: Developing hospitality prospects in Uzbekistan. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1652-1656.
7. Боймирзаев, Ж. Ш. У., Юнусходжаева, Н. А., Ризаева, Н. М., & Жумабоев, Ж. А. (2019). Получение гемостатического геля на основе местного растительного сырья. Science Time, (2 (62)), 44-48.
8. Khusainova, R. A., Ubaidullaev, K. A., Zainidinov, A. O., & Rizaeva, N. M. (2019). Content analysis of the nomenclature of drug antibiotics of the cefalosporin range of the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan.
9. Rizaeva, N. M. Choice of composition and development of technology for glyhiszine tablets (Doctoral dissertation, Thesis of on the scientific degree competition of the candidate of pharmaceutical sciences).
10. Rizaeva, N. M., Vakhidova, N. M., Khusainova, R. A., Radjapova, N. S., & Toychiboev, M. M. (2018). DEVELOPMENT OF DENTAL GEL COMPOSITION AND TECHNOLOGY. Научное знание современности, (2), 35-38.

11. Темиров, А. С., Хусаинова, Р. А., Дусматов, А. Ф., Абдуллаев, У. Ф. У., & Ризаева, Н. М. (2019). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСТАТОЧНОГО КОЛИЧЕСТВА ОРГАНИЧЕСКИХ РАСТВОРИТЕЛЕЙ В СУБСТАНЦИЯХ АМПИЦИЛЛИНА НАТРИЯ. *Science Time*, (2 (62)), 49-54.
12. Abdullaeva, N. K., Khusainova, R. A., Rizaeva, N. M., & Pshenichnov, E. A. (2020). Quantitive Determination And Validation Of Cobafen (Lyophilizate 10mg For Preparation Of Solution For Injection). *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(03), 2020.
13. Туляганов, Б. С., Вахидова, Н. М., & Ризаева, Н. М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ГЕЛЯ. *Вестник Науки и Творчества*, (9 (57)), 18-21.
14. Махмуджанова, К. С., & Ризаева, Н. М. (2021). ОПРЕДЕЛЕНИЕ РАСПАДАЕМОСТИ И РАСТВОРЕНИЯ ТВЕРДЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ФОРМ В «УНИВЕРСАЛЬНОМ ПРИБОРЕ». *Science Time*, (7 (91)), 45-49.
15. Махмуджанова, К. С., Шарипова, И. Ш., Ризаева, Н. М., & Пазилбекова, З. Т. (2021). РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ НОВОГО АНТИГИПОКСИЧЕСКОГО ПРЕПАРАТА НА ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ ГЕРАНИ ХОЛМОВОЙ (GERANUM COLLINUM STEPH.). *Science Time*, (8 (92)), 8-13.
16. Mallaevna, O. N. (2021). Theoretical Basis of Formation of Pedagogical Ethics in Students. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(5), 131-132.
17. Mallaevna, O. N. (2022). THE PROCESS OF FORMING PEDAGOGICAL ETHICS IN STUDENTS AND ITS EFFICIENCY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 679-682.
18. Очилова, Н. М. (2017). СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К УРОКАМ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. *Ученый XXI века*, 43.
19. Uktamovna, K. D. (2022). THE ROLE OF THE EAST IN THE LIFE AND CREATIVE ACTIVITY OF LEO TOLSTOY.
20. Khusenova, D. U. (2022). THE ROLE OF THE EAST IN THE LIFE AND CREATIVE ACTIVITY OF LEO TOLSTOY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 463-468.
21. Khusenova, D. U. (2021). THE MORAL MEANING AND AESTHETIC MEANING OF THE FOLK STORIES OF LN TOLSTOY'S.
22. KHUSENOVA, D. (2018). Consonance of oriental views in the " Confession " by Leo Tolstoy. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(3), 105-105.
23. KHUSENOVA, D. (2019). Eastern motives in the literary works by LN Tolstoy. *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(6), 121-123.
24. VIKTORIYA, G., & NARGIZA, X. Functioning of Ethnographic Terms in the Russian Language at the Level of Polysemy, Homonymy, Synonymy, Antonymy. *JournalNX*, 7(02), 170-173.
25. Ходжаева, Н. Т. ИЗУЧЕНИЕ ГЕНДЕРА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *Editorial board/Редакционная коллегия Главный редактор*, 88.
26. Khodjaeva, N. T., & Shevchenko, E. LINGUOCULTURAL ASPECTS OF INTERNATIONAL TOURISM TERMS.
27. Abdugafurovich, A. A., & Tavakkalovna, K. N. (2021). Intertextual signs in the scientific style. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1658-1661.
28. Ходжаева, Н., & Shevchenko, E. V. (2021). STYLIZATION AS A METHOD OF LITERARY STYLE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 13-18.
29. Ходжаева, Н., & Хусейнова, Д. (2021). FUNCTIONS OF SYNONYMS IN LANGUAGE. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 1(1).

-
30. Xodjaeva, N. (2021). RESEARCH OF LINGUOCULTURAL ASPECTS OF THE TERMINOLOGY OF INTERNATIONAL AND REGIONAL TOURISM. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(11), 83-86.
31. Ходжаева, Н. Т., & Шевченко, Е. В. (2022). ВЛИЯНИЕ ИГР И СИМУЛЯЦИЙ НА ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАНИЕ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ. Conferencea, 262-264.
32. Ibragimkhodjayev, A. M., Rakhmonberdiyev, G. R., Murodov, M. M., & Kodirov, O. S. (2009). "Influence of ripening process of cellulose from topinambour on its fractional composition. Chemistry and chemical technology. Tashkent, (4), 57.
33. Турдибоева, Н. У., Муродов, М. М., & Урозов, К. М. (2018). РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ИЗ РАСТЕНИЙ КЛЕЩЕВИНА И ПОЛУЧЕНИЯ НАКАРБОКСИМЕТИЛЦЕЛЛЮЛОЗА НА ЕЁ ОСНОВЕ. Учредители, 36.
34. Муродов, М. М., Юсупова, Н. Ф., Сидиков, А. С., Турабджанова, С. И., Турдибаева, Н., & Сиддиков, М. А. OBTAINING A PAC FROM THE CELLULOSE OF PLANTS OF SUNFLOWER. SAFFLOWER AND WASTE FROM THE TEXTILE INDUSTRY.
35. Mohigul, A., & Sidiqjon, M. (2022). TILSHUNOSLIKDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 429-432.
36. Umirzoqov, A. (2020). The Tasks of Optimal Design and Research of Systems for Cleaning Gas Emissions of Industrial Enterprises. International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN.
37. Nasirov, U., Umirzoqov, A., & Fathiddinov, A. (2021). ANALYSIS OF THE MODERN DEVELOPMENT OF MINING AND PROCESSING COMPLEXES IN UZBEKISTAN. Збірник наукових праць Л'ОГОС.
38. Usmanovich, S. A., Ikhtiyorovich, N. N., & Abdurashidovich, U. A. (2022). Processing of Layout Tails of Gold-Extracting Plants. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(1), 7-13.
39. Бекпулатов, Ж. М., Махмарезабов, Д. Б., Умирзоқов, А. А., & Кушназоров, И. С. Ў. (2021). БОЙИТИЛИШИ ҚИЙИН БЎЛГАН ОЛТИН ТАРКИБЛИ РУДАЛАРНИ УЗЛУКСИЗ ЖАРАЁН ПРИНЦИПИ БЎЙИЧА ФЛОТАЦИЯЛАШНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ. Scientific progress, 2(1), 1266-1275.
40. Петросов, Ю., Хайитов, О., Умирзоков, А., Исманов, У., & Имамбердиев, Ў. (2021). ПРОБЛЕМЫ ДОБЫЧИ И ПЕРЕРАБОТКИ ПОЛЕЗНЫХ ИСКОПАЕМЫХ В УСЛОВИЯХ ГЛУБОКИХ КАРЬЕРОВ. Збірник наукових праць SCIENTIA.